

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**



[Signature] avgust 2023 y.

Qayd raqami _____

**O'ZBEK VA JAHON ADABIYOTI
FANI BO'YICHA**

O'quv dasturi

Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	210 000 – San'at
Ta'lim yo'nalishi:	60212000 – Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish

Buxoro – 2023

Fan/modul kodi O'zJA20018	O'quv yili 2023-2024	Semestr 1-2	ECTS – Kreditlar 8	
Fan/modul turi MAJBURIY fani	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'zbek va jahon adabiyoti	60	120	180
	Jami:	60	120	180
2.	<p>I. Fanining mazmuni</p> <ul style="list-style-type: none"> • “O'zbek va jahon adabiyoti” fani 1-2-semestrda o'qitiladi. • “O'zbek va jahon adabiyoti” fani barcha fanlar bilan bog'liq holda ish ko'rganligi bois, qator fanlar uchun asos vazifasini o'taydi. • Mazkur fanning maqsadi – talabalarga o'zbek va jahon adabiyotining eng nodir namunalari bilan tanishtirish, xalq ma'naviy hayotida muhim o'rin tutishini, unda o'zbek xalqining asrlar davomidagi ijtimoiy, maishiy, madaniy hayoti o'zining badiiy ifodasini topganligi, o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari va ularning janrlar tarkibi, o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ilmiy-nazariy ma'lumot berishdan iborat. • Vazifasi – talabalarni o'zbek va jahon adabiyotining namunalari, mumtoz adabiyot, antik davr adabiyoti, milliy uyg'onish davri adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, bu borada amalga oshirilgan ilmiy ishlar va ularning ahamiyati kabilar bilan tanishtirish, bu sohalarda qo'lga kiritilgan yutuqlar, bilimlar sirasi, ulardagi munozarali holatlar, g'oyalar va qarashlar, asosiy tushuncha va atamalar xususida ma'lumot berishdan iborat. • Mazkur fan doirasida o'zbek va jahon adabiyotining tarix, falsafa, psixologiya, dialektologiya va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'liqligini, adabiyotshunoslik ilmi va adabiy jarayondagi nazariy masalalarni, badiiy asarning shakl va mazmuniga oid nazariy qarashlarni, lirikaning poetik nutq va uslubiy individuallik masalalarini tishuntirish va zaruriy bilimga ega qilish fanning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. <p>II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu: Kirish. Mumtoz adabiyotning diniy, tasavvufiy, ilohiy, irfoniy manbalari Mumtoz adabiyot taraqqiyotida Qur'oni karim g'oyalari va hadisi sharifdagi fikrlarning o'rnini va ahamiyati. Tasavvuf. Uning san'at va adabiyotga ta'siri, mumtoz adabiyot taraqqiyotidagi o'rnini va ahamiyati. Didaktik, tarixga va geografiyaga oid, siyosiy-axloqiy asarlar Kaykovusning “Qobusnoma” asari. Fariddidin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asari tahlil qilinadi.</p> <p>2-mavzu: Eng qadimgi adabiy yodgorliklar Mumtoz adabiyotning shakllanishidagi asosiy omillar: mifologiya va uning yozma adabiyot tarakkivyotidagi o'rnini. Xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyot munosabatlari, tarjima adabiyoti va mumtoz adabiyot. Markaziy Osiyo eposlar vatani ekanligi. “To'maris” va “Shiroq” “Avesto” adabiy manba sifatida. O'rxun-Enasoy obidalari (VI-VIII asrlar) adabiy manba sifatida</p> <p>3-mavzu: X-XII asrlar adabiyoti X–XIII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot. Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Mineralogiya” asrlari. Mahmud Qoshg'ariy va uning “Devoni lug'otit-turk” asari. Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodi.</p> <p>4-mavzu: XII-XIV asrlar adabiyoti XIII-XIV asrlarda O'rta Osiyodagi ijtimoiy hayot, madaniy muhit.</p>			

sifatida. O'zbek adabiyotida noma janri. Atoiy va Sakkokiy ijodi.

5-mavzu: XV asr adabiyoti. A.Navoiy ijodi, "Xamsa" va nasriy asarlari

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi. Shoir hayoti va adabiy merosining o'rganilish tarixi. She'riyati. "Xazoyinul-maoniy" asari. "Xamsa" va uning dostonlari haqida. Navoiyning nasriy asarlari.

6-mavzu: Z.M.Bobur ijodi. 16-19 asrlar adabiyoti

Bobur hayoti va adabiy merosi. Shoir she'riyati, devonlari, badiiy mahorati. "Boburnoma", "Risolayi aruz" asarlari tahlili. "Volidiya" va "Mubayyin" asarlarining adabiy qimmatlari.

7-mavzu: Jadid ma'rifatparvar adiblari ijodi. Fitrat, Cho'lpon. Fitratning adabiyotshunoslik faoliyati. Vadud Mahmudning estetik qarashlari.

Fitrat – shoir, nosir va dramaturg, mumtoz adabiyoti tadqiqotchisi. Fitrat – adabiyotshunos. Fitrat – tanqidchi. Fitrat – publitsist. "Tanqid saralamoqdur". "Cho'lponning "Adabiyot nadur" maqolasi.

8-mavzu: Mustaqillik davri adabiyoti

Hozirgi o'zbek she'riyati. Hozirgi nasr xususiyatlari. Hikoya janri. Hozirgi o'zbek qissalari. Hozirgi o'zbek romanchiligi. Hozirgi o'zbek dramaturgiyasini o'rganish.

9-mavzu: Jahon adabiyoti. Antik davr yunon va Rim adabiyoti.

Qadimgi Sharq adabiyotining antik adabiyot bilan mushtarak jihatlari: mifologiyadagi va eposdagi mushtaraklik. Homerning "Iliada" va "Odessiya" dostonlari. Rim adabiyotining asosiy taraqqiyot bosqichlari va yo'nalishlari. Goratsiy ijodi. "Epodlar" asar. Rim elegiyasi va Ovidiy ijodi. Sharq va G'arb qahramonlik eposlarining mushtarak jihatlari.

10-mavzu: Uyg'onish davri adabiyoti. U. Shekspir ijodi

Vilyam Shekspirning hayot yo'li. Shekspirning mualliflik masalasi. Shekspir lirikasida sonetning tutgan o'rni va yangilanishi. Shekspir dramalari – eng yuksak ijodiy kuch mahsuli. Shekspir tragediyalari va komediyalari: "Romeo va Julietta", "Yuliy Sezar", "Gamlet", "Otello", "Qirol Lir", "Yoz kechasidagi tush", "Qiyiq qizning quyilishi". "Gamlet"da bosh qahramon masalasi.

11-mavzu: Klassitsizm adabiyoti. Ma'rifatchilik adabiyoti. Gyote ijodi.

D.Defoning hayoti va adabiy faoliyati haqida. "Robinzon Kruzo" romanida inson matonati tasviri. "Robinzon Kruzo" romanida oliy fazilatlar hamda inson kamolotida mehnatning o'rni masalasi.

12-mavzu: Romantizm adabiyoti. Bayron va Gyugo ijodi

Gyote – yangi davr nemis adabiyotining ilg'or vakili. "Faust" asarida axloqiy va ma'naviy g'oyalar talqini. Asarda miflarning o'rni. Shayton Mefistofel obrazi tavsifi. "Faust" asarida insoniy tanazzul tasviri.

13-mavzu: Realizm va tanqidiy realizm adabiyoti.

Realizm estetikasi. Realizm va tanqidiy realizmning farqli jihatlari. Balzak hayoti va ijodi. "Gorio ota", "Gobsek" asarlari tahlili.

14-mavzu: XIX asr boshlari rus adabiyoti

Rus adabiyotida romantizm. A.S.Pushkin ijodi. "Evgeniy Onegin" she'riy romani ilk realistlik asar sifatida.

15-mavzu: Amerika adabiyoti. J. London va E.Xemenguey ijodi

Dostoyevskiyning hayoti va ijodi. "Jinoyat va jazo" asarida qahramonlar ruhiy holatining ifodalanishi. Roman obrazlarining o'ziga xosligi.

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Seminar mashg'ulotlari bo'yicha quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- M.Qoshg'ariy va uning "Devoni lug'otit turk" asari.
- Yusuf xos Hojib va Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodi. "Qutadg'u bilig" hamda "Devoni hikmat" asari tahlili.
- Alisher Navoiy lirikasi. "Xamsa" asari tahlili.
- Bobur lirikasi va "Boburnoma" tahlili.
- Cho'lpon lirikasi va nasri.
- Fitrat shoir va dramaturg.
- G'afur G'ulom nasri. Shoir she'riyatida falsafiy teranlik va badiiy mukammallik.
- Homering qahramonlar xarakterini yaratish mahorati ("Iliada" va "Odissey" dostonlari asosida).
- "Ilohiy komediya" da Dante ijtimoiy-axloqiy qarashlarining ifodalanishi.
- "Hamlet" - Shekspir ijodining cho'qqisi.
- D.Defoning "Robinzon Kruzo" romanida ma'rifat g'oyasi.
- Gyotening "Faust" asari asosiy g'oyasi.
- Balzak asarlarida umuminsoniy qadriyatlar.
- Pushkinning "Evgeniy Onegin" she'riy romani realistik asar sifatida.
- F.Dostoevskiyning "Jinoyat va jazo" romanida psixologizm.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

- G'afurov I. O'ttiz yil izhori. – T.: Adabiyot va san'at, 1978. – 400 b.
- Qo'shjonov M. Saylanma. – T.: Adabiyot va san'at, 1982. – 384 b.
- Imomov B., Jo'rayev Q., Hakimova H. O'zbek dramaturgiyasi tarixi. – T.: O'qituvchi, 1995. – 240 b.
- Aliyev A. Istiqlol va adabiy meros. – T.: O'zbekiston, 1997. – 272 b.
- Mirvaliyev S. O'zbek adiblari. – T.: Yozuvchi, 2000. – 280 b.
- Mirzayev S. Hayot va adabiyot. – T.: Sharq, 2001. – 304 b.
- Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: Shark, 2004.
- Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. – T.: Sharq, 2004. – 288 b.
- Normatov U. Ijod sehri. – T.: Sharq, 2007.

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

- Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishi tavsiya etiladi:
- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik;
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularni o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabani o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.

3.

V. Ta'lim natijalari. Kasbiy kompetensiyalari

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- O'zbek va jahon adabiyotining genezisi va taraqqiyoyi, janrlar va ularning xususiyatlarini aniqlash, dunyoda e'tirof etilgan mashhur asarlar bilan tanishish haqida bilimga;
- o'zbek va jahon adabiyotining o'xshash va farqli jihatlarini anglashi va ularni baholash kabi ko'nikmaga;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- o'zbek va jahon adabiyotining taraqqiyoti, nazariy asoslari, janrlar takomili va ijro jarayonlarini tahlil qilish, ularni guruhlash, janrlar ichki tasnifini yaratish va shu asosda tahlil qilish, matnlarini mustaqil o'qiy olish, tahlil qilish, jahon adabiyotining nodir namunalari bilan tanishish, ularning poetik xususiyatlarini tahlil qilish;

- antik dunyo adabiyoti, mifologik asarlar genezisi va tarixiy taraqqiyoti, o'zbek xalq dostonlari janrlar va ularning xususiyatlarini aniqlash, o'zbek adabiyot va jahon adabiyoti munosabatlari haqidagi **umumiy kompetensiya yoki kasbiy kompetensiyalarga ega bo'ladi.**

4.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (aliy hujum, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar;

5.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMLlarda o'quv jarayonida kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ning 15- va 30-bandlariga asosan O'zbek folklori fanidan **1-semestrda 150 soat o'quv yuklamasini o'zlashtirgan**, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra **ijobiy baholanib kasbiy kompetensivalarni yetarli darajada egallagan** talabaga 5 kredit beriladi.

Talaba belgilangan **ta'lim natijalariga erisha olmagan taqdirda** kreditlar berilmaydi.

Talabalarning bilimlarini baholash tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim masalalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

1. Talabalar bilimni baholash mezonlari:

talaba fan yuzasidan mustaqil xulosa va qarorlar qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil

mushohada yurita oladi, olgan bilimni amalda qollay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi,

ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho;**

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni malda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho;**

talaba olgan bilimni amalda qollay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho;**

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho**

2. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

Oraliq nazorat: o'tilgan mavzular asosda og'zaki yoki test shaklida o'tkaziladi.

Oraliq nazorat: og'zaki shaklda o'tkazilganda o'tilgan ma'ruza, amaliy (seminar) hamd mustaqil ta'lim mavzulari asosida bilet savollari tayyorlanadi va o'quv yili boshida kafedranin 1-sonli yig'ilishida tasdiqlanadi. Har bir bilet 2 ta nazariy savol va 1 ta seminar topshiriqlarida

(o'zbek va jahon adabiyotining eng sara na'munalaridan parcha yod aytish)dan iborat. Tayyorgarlik ko'rish uchun 10 daqiqa beriladi. Nazariy savolga 1,5 balldan, amaliy savol va topshiriqlarga 2 ball beriladi. Savollarni aniqlashtirish uchun talabalarga qo'shimcha savollar beriladi.

Izoh: *Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda 2 marta gacha o'tkazilishi mumkin.*

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

6.

Asosiy adabiyotlar

1. Aristotel. Poetika. Toshkent, Adabiyot va san'at, 1980.
2. Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. Toshkent, O'qituvchi, 1975.
3. Boltaboev H., Normatov U. Bugungi adabiyotda estetik ideal va qahramon muammosi. (Suhbat)// Jahon adabiyoti, 2012-yil, № 4. –B.134-148.
4. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – T.: Yangi asr avlodi, 2007.
5. Rasulova U. XX asr o'zbek kissalari tadriji. - T.: 2012.
6. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – T.: 2008.

Qo'shimcha adabiyotlar

7. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni (Xalq so'zi 2017-yil, 8-fevral).

9. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.

10. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017.

11. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: Sano standard, 2018.

12. N.Jumaxo'ja, I.Adizova. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: "NOSHIR" 2019, 432 b.

13. Alisher Navoiy. Yigirma jildlik. – T.: Fan, 1991 – 2005.

14. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – T.: Fan. 1960

Axborot manbalari

15. lectures.ndpi.uz>lektions

16. news.uzreport.uz>news.

17. www.folklore.uz

18. www.folksentr.ru

19. www.Philologists.narod.ru.

20. <https://m.vk.com/club1962650>

21. www.ziyo.uz

22. www.ziyonet.uz

23. folklore.tomsk.ru

24. www.ruthenia.ru/folklore

7. Buxoro davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan (BuxDU Filologiya fakulteti ilmiy kengashining 2023-yil ____ -avgustdagi 1-sonli bayonnomasi).

Fan o'quv dasturi Buxoro davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan (BuxDU kengashining 2023-yil " ____ " -avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan).

8.	Fan, modul uchun mas'ul: Sh.N.Axmedova – Buxoro davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professorı, filologiya fanlari doktori. <i>Sh.N.Axmedova</i>
9.	Taqrizchilar: Z.J.Raxmonova – O'zbekiston Fanlar akademiyasi, O'zbek tili va folklori instituti filologiya fanlari bo'yicha felsefa doktori, dotsent. <i>Z.J.Raxmonova</i> D.Z.Rajabov – filologiya fanlari doktori, professor <i>D.Z.Rajabov</i>
10.	Kafedra mudiri: <i>H.P. Eshonqulov</i> H.P. Eshonqulov